


Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal

IF(Impact Factor)9.573 / 2024

ISSN 2181-1881



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм



3/2024

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Баҳром АБДУҲАЛИМОВ – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси вице-президенти

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Фирдавс АБДУХОЛИҚОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Жамолиддин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

Назир Муҳаммад АЙЁД (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Миср муфтийси

Режеп ТУЗЖУ (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

*Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича
қўмитасининг 2024 йил 23 сентябрдаги
03-07/5757-сонли хулосаси асосида тайёрланди.*



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:

Жамолиддин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:

Зафар Фаҳриддинов,
*Исломишунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:

Зарифжон Арслонов

Дизайнер:

Зарифжон Ғуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
ҳузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

E-mail: maturidijournal.org

Web-sahifa: info@moturidiy.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Qosimjon Sodiqov

Qur'oni karimning eski turkiy tildagi o'girmasi 4

Shukrullo Jorayev

Ханафий мазҳабида тинчликнинг қадрланиши ҳамда уруш ва низоли вазиятларда инсонпарварлик тамойиллари 17

Ikhtiyor Abdurahmonov

XI-XII asrlarda Movarounnaxrda ханафий-мотуридий тафсир мактаби ривожиди 25

Abdullo Ghulomov

Маҳмуд Ломишийнинг «Тамхид» асарида имон ва унга боғлиқ масалалар баёни 32

Zohidjon Abdullayev

«Сунани Термизий» асарида келган ақидага оид ҳадислар таҳлили..... 42

Abdulaziz Yakhshilikov

«Ta'vilot al-qur'on» asarida oyatlar sababi nuzulining rivoyat qilish uslublari 47

Doniyor Muratov, Robiyaxon Hamroqulova

Қуръон қиссалари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари..... 54

ДИНШУНОСЛИК

Jamshid Aliev

Сурия можаросида диний омилнинг ўзига хос хусусиятлари 62

Ulugbek Jurayev

Германияда экстремизмга қарши курашиш тажрибаси таҳлили 70

ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИК

Irodakhon Gafurova

Scientific research dedicated to the confessions of Turkestan..... 77

Zafar Fakhriddinov

Ҳақим Термизийнинг ислом манбалари шарҳига оид асарлари таснифи..... 83

Javohir Azimqulov

Arab istilosi davrida Turonda hunarmandchilik (VII asr o'rtalari- IX asr boshlari)..... 91

Abduvali Pardayev

Нусайр ибн Яҳё Балхий ҳаёти ва илмий фаолияти 97

Qosimjon P. SODIQOV,
Professor at Tashkent State Institute of
Oriental Studies, Doctor of Philology.
Amir Temur str. 20. 100060, Tashkent. Uzbekistan.
E-mail: kasimjonsadikov@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-3/1

QUR'ONI KARIMNING ESKI TURKIY TILDAGI O'GIRMASI

THE OLD TURKIC TRANSLATION OF THE HOLY QUR'AN

СТАРОТЮРКСКИЙ ПЕРЕВОД СВЯЩЕННОГО КОРАНА

KIRISH

Qur'oni karimning eski turkiy tildagi o'girmasi turk-islom davrining ilk yozma yodgorliklaridan biri, turk islomshunosligi va ma'naviyatining ulug' yutuqlaridandir. Shu bilan birga, u eski turkiy yozma adabiy tilining ham bebaho asaridir.

Turkiy tildagi o'girma qachon va kim tarafidan bajarilgani aniq emas. Matnning til xususiyati uning, harqalay, XI yuzyilda bajarilganiga ishora qiladi.

Ushbu nodir asarning to'liq qo'lyozmasi bir nusxada saqlanib qolgan. U hozirda Istanbuldagi Turk Islom asarlari muzeyida 73-raqam ostida saqlanayotir. Qo'lyozma 451 varaqli (902 betli). Har betida to'qqiz qatorli, oxiriga yaqinlashgach, yetti qatorli qilib, arabcha matn qorada, unga tagma-tag keltirilgan turkiy o'girmasi qizilda bitilgan.

Qo'lyozma 902-betining oxirida bitilgan ta'rixga ko'ra, u kotib She'rozli Muhammad ibn Hoj Davlatshoh tarafidan 734/1333–34 yilda ko'chirib tugallangan. Biroq uning ko'chirilgan yeri aniq emas. Kotibning tug'ilgan yeriga qarab, ba'zi olimlar uni Sherozda ko'chirilgan desalar, boshqa birlari qo'lyozma tilidagi o'ziga xos belgilariga ko'ra, u Xorazm madaniy markazlaridan birida ko'chirilgan degan fikrda (Okıgu,45–46).

Qo'lyozmaning xat uslubiga qaraganda, uning kotibi ikki kishi bo'lgan. Aftidan, qo'lyozma kotibi orada og'ir xastalanib qolgan, ish to'xtamasligi uchun ikkinchi kotib unga ko'maklashib yuborgan; oradan birmuncha vaqt o'tgach, avvalgi kotib o'z ishini yana davom ettirgan ko'rinadi (qarang: Okıgu,54–58).

Qur'oni karimning eski turkiy tildagi o'girmasi 2023-yili Istanbulda Ekrem Ural tarafidan

transkripsiya, izohlari bilan chop etildi (qarang: Okıgu).

Ushbu kitobni menga tortiq qilgani uchun professor-doktor Usman Sertkayaga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

MUHOKAMA

Qur'on o'girmasining tili va uslubi

Turkiy o'girmada qadimgi va eski turkiy tillargagina xos bo'lgan, hozirgi turkiy tillarda unutilgan katta bir lug'at qatlami ishlatilgan. Ana shu so'zlarning o'ziyoq tarjima tilining eskiligini anglatib turadi. Bular: kōni (Ok.2/16) – «to'g'ri»; o'gur (Ok.2/34) – «vaqt, chog'»; örünj (Ok.2/57) – «oq»; arıy (Ok.2/168) – «toza»; tanuq (Ok.10/29) – «guvoh»; tamuı (Ok.98/6) – «do'zax»; yazuq (Ok.2/182) – «gunoh»; aıun (Ok.2/201) – «dunyo, olam»; qunčuylar (Ok.2/222) – «ayollar, xotinlar»; öküř (Ok.89/13) – «ko'p»; yaıluq (Ok.89/15) – «inson»; et-öz (Ok.89/27) – «vujud»; ögdü (Ok.110/3) – «madh» singari so'zlardir.

Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotida [d] > [δ] > [y] // [g] fonetik hodisasi yuz bergan (Содиқов 2020,232). Qur'oni karimning turkiy o'girmasida [δ]- lashish hodisasi ustun. Hozirgi ko'pchilik turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida [y] yoki [g] bilan aytiluvchi so'zlar matn tilida ishora [δ] undoshi bilan aytilgan: qadıy (Ok.2/156) – «qayg'u»; uıdu bar- (Ok.2/168) – «izidan bor-»; keđinki (Ok.2/130) – «keyingi»; eđgölük (Ok.99/7) – «ezgulik»; ađaqlarıñız (Ok.6/65) – «oyoqlaringiz»; qodıyıl anlarıñı (Ok.6/70) – «qo'ygin ularni»; bođun (Ok.7/94) – «xalq» singari.

Shunga qaramay, matnda, ayrim o'rinlarda, [y]- lashish holati ham uchrab turadi: kitāb eyālāri (Ok.3/65) – «ahli kitob»; uluy faıl eyāsi (Ok.3/174) – «ulug' fazilat egasi».

Qaratqich kelishigi -nıñ, -niñ / -nuñ, -nün qo'shimchasi bilan birga -ıñ, -iñ / -uñ, -ün qo'shimchasi bilan ham ifoda etiladi: biziñ belgölārimiz içindä (Ok.6/68) – «bizning oyatlarimiz ichida».

Matnda -ylı, -gli affiksli sifatdoshlar keng ishlatilgan: küč qılıylı (Ok.10/39) – «kuch ishlatuvchi»; ĥasad tutuylı (Ok.113/5) – «hasad qiluvchi» so'zlaridagi singari.

Unda -dači, -däči affiksli sifatdoshlar ham ishlatilgan: üstün-astın boldačılar (Ok.9/70) – «ustun-ostin bo'lg'uchilar»;

Annotatsiya. Maqolada Qur'oni karimning eski turkiy tildagi o'girmasi va uning ilmiy ahamiyati tahlil etilgan. Ushbu tarjima islom sivilizatsiyasining turkiy xalqlar orasida tarqalishi va bu davr yozma madaniyatining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Maqolada asarning yozilgan davri, til xususiyatlari va uslubi keng yoritilgan. Eski turkiy tilga xos lug'aviy qatlamlar, grammatik tuzilmalar, fonetik o'zgarishlar va sintaktik o'zgarmalar chuqur tahlil qilinadi. Tarjima XI asrda bajarilgan bo'lib, o'sha davr turkiy yozma adabiy tilida diniy-falsafiy atamalar tizimi mukammal darajada ishlab chiqilganini ko'rsatadi. Ushbu matnning qadimgi va hozirgi turkiy tillar orasidagi farqlarini tahlil qilish orqali, o'girma tili va uning uslubi hamda turkiy tilning o'ziga xosligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada qo'lyozmaning o'ziga xos jihatlari, matnning shakli va yozilish tarzi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ushbu nodir asarning to'liq qo'lyozmasi hozirda Istanbuldagi Turk Islom asarlari muzeyida saqlanmoqda.

Matnda Qur'on oyatlarining turkiy tilga tarjimasi aniq va so'zma-so'z berilgan bo'lib, unda arab tilidagi jumla strukturasi moslashuv, turkiy tarjimaning o'ziga xos uslubi va qoidalari ishlab chiqilgan. Tarjima jarayonida ishlatilgan lug'at qatlami va diniy atamalarining turkiy ekvivalentlari, shuningdek, qadimgi turkiy tilning boy imkoniyatlari, arabcha atamalar va so'zlarning turkiy til qonuniyatlari asosida qayta yaratilishi chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada Qur'oni karimning arabcha matni va turkiy o'girmasi o'rtasidagi farqlar, diniy-falsafiy atamalarining turkiy tilga kiritilishi jarayoni ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, eski turkiy til, Qur'onning eski turkiy tildagi o'girmasi, Qur'on suralari, oyatlar, Allohning sifat ismlari, basmalaning turkiy o'girmasi.

Abstract. The article analyzes the old Turkic translation of the Qur'an and its scientific significance. This translation played a major role in the spread of Islamic civilization among Turkic peoples and the development of written culture during that period. The article extensively covers the time of writing, linguistic features, and style of the work. The lexical layers, grammatical structures, phonetic changes, syntactic modifications, and characteristic of the old Turkic language are deeply examined. The translation, completed in the 11th century, shows that the system of religious-philosophical terms in the Turkic literary language was developed to a high level. Through an analysis of the differences between ancient and modern Turkic languages, valuable information is provided about the language, style, and uniqueness of the translation. The article gives detailed information about the manuscript's distinctive features, the form, and writing style. The complete manuscript of this rare work is currently preserved in the Museum of Turkish and Islamic Arts in Istanbul. The translation of the Qur'anic verses into Turkic is presented clearly and literally, with adaptation to the Arabic sentence structure. The unique style and rules of the Turkic translation, the vocabulary used, and the Turkic equivalents of religious terms are thoroughly analyzed. The article also highlights the differences between the Arabic text of the Qur'an and its Turkic translation, as well as the process of incorporating religious-philosophical terms into the Turkic language.

Keywords: The Holy Qur'an, old turkic language, translation of the Qur'an in old turkic language, suras (chapters) of the Qur'an, verses, names of the attributes of Allah, turkic translation of basmala.

Аннотация. В статье анализируется древнетюркский перевод Корана и его научное значение. Этот перевод сыграл важную роль в распространении исламской цивилизации среди тюркских народов и в развитии письменной культуры того времени.

В работе подробно рассматриваются время написания произведения, языковые особенности и стиль перевода. Осуществляется глубокий анализ лексического слоя, грамматических структур, фонетических изменений и синтаксических трансформаций, характерных для древнетюркского языка. Перевод был выполнен в XI веке, что свидетельствует о высоком уровне развития системы религиозно-философских терминов в тюркском письменном языке той эпохи. Анализируя различия между древним и современным тюркскими языками, статья предоставляет ценные сведения о языке перевода, его стиле и особенностях тюркского языка. В работе также подробно рассматриваются особенности рукописи, форма текста и стиль его написания. Полный текст этого редкого произведения в настоящее время хранится в Музее турецких исламских произведений в Стамбуле.

Перевод стихов Корана на тюркский язык в тексте представлен в точной и дословной форме, при этом соблюдается соответствие арабской структуре предложений, разработаны специфические стиль и правила тюркского перевода. В статье глубоко анализируется используемый лексический состав и религиозные термины, а также процесс адаптации арабских слов и терминов к тюркской языковой системе, основанный на законах тюркского языка. Кроме того, рассматриваются различия между арабским текстом Корана и его тюркским переводом, а также процесс заимствования религиозно-философских терминов в тюркский язык.

Ключевые слова: Священный Коран, древнетюркский язык, перевод Корана на древнетюркском языке, суры (главы) Корана, аяты, атрибутивные имена Аллаха, тюркский перевод басмалы.

Matnda jo'nalish kelishigi qo'shimchasining -ya, -gä variantiga qaraganda -qa, -kä varianti kengroq qo'llangan: bo'dunqa (Ok.9/39) – «xalqqa»; anlarqa (Ok.10/39) – «ularga»; taylarqa (Ok.88/19) – «tog'larga»; čřayqa (Ok.89/18) – «qashshoqqa»; silärkä (Ok.2/134) – «sizlarga» so'zlaridagi singari.

Chiqish kelishigi -dın, -din qo'shimchasi bilan bir qatorda, -da, -dä qo'shimchasi bilan ham ifodalanadi: silärdä ađın (Ok.9/39) – «sizlardan o'zga»;

Matnda siz olmoshi silär shaklida ham ishlatiladi. Chog'ishtiring: silär (Ok.9/39) // siz (Ok.9/40); yoki yana: sizkä (Ok.3/119); sizlärkä (Ok.3/120); silärkä (Ok.4/5).

Suralarning sanog'i aytilganda, hozirgi o'zbek tilidagi singari -ta, -tä qo'shimchasi ishlatilgan emas. Sanoq sondan keyin āyat so'zi aytilaveradi. Masalan, bir xonali sonlarda:

beš āyat turur (Ok.97). – «besh oyatdan iboratdir».

tört āyat turur (Ok.112). – «to'rt oyatdan iboratdir».

altı āyat turur (Ok.114). – «olti oyatdan iboratdir».

Ikki xonali sonlarda ham qoida ana shunday.

Uch xonali sonlarni aytishda yüz, iki yüz so'zlaridan keyin taqı, ya'ni «tag'in» so'zini qo'shib, o'nlikka o'tiladi:

yüz taqı yigirmi üç āyat turur (Ok.5). – «yuz yigirma uch oyatdan iboratdir».

yüz taqı altmış altı āyat turur (Ok.6). – «yuz oltmish olti oyatdan iboratdir».

yüz taqı yeti āyat turur (Ok.10). – «yuz yetti oyatdan iboratdir».

yüz taqı yigirmi üç āyat turur (Ok.11). – «yuz qigirma uch oyatdan iboratdir».

yüz taqı on bir āyat turur (Ok.12). – «yuz on bir oyatdan iboratdir».

Bu va buning singari belgilari turkiy matn tilini XI yuzyilda yaratilgan turkiy asarlar tiliga yaqinlashtiradi.

E'tiborli jihati, eski turkiy yozma adabiy tilida islom diniy-falsafiy atamalar tizimi (terminologiyasi) mukammal darajada ishlab chiqilgan edi. Qur'onning eski turkiy tilga o'girmasida ana shu lug'at qatlamining katta bir qismi ishlatilgan. Yana bir qirradi, o'sha davr yozma manbalarida ishlatilgan diniy-falsafiy atamalarining ko'pi turkiy so'zlardir. Ular turkiy tilning ichki imkoniyatidan kelib chiqib yasalgan; ixcham, turkiy til qonuniyatlari asosida yasalgan yoki bor so'zlarga yangi ma'nolar

yuklangan; ular islomiy tushunchalarni aniq va ravshan ifodalaydi. Bunday so'zlarni yaratgan, o'z tillarida bor so'zlarni islomiy ma'noda bilib ishlatgan bilginlarimizning aqlu shuriga hayratlanasan kishi. Ona tiliga hurmatni, tilni boyitish yo'llarini o'sha bilginlarimizdan o'rganmagimiz kerak.

Qur'onni ona tiliga o'girish jarayonida turkiy yozma adabiy til tarixida o'ziga xos yangi bir uslub – islomiy matnlar uslubiga ham asos solindi; uning qoidalari, yo'l-yo'riqlari, yozma o'lchovlari ishlab chiqildi. O'zbek adabiy tilining keyingi bosqichlarida ana shu davrda ishlab chiqilgan yozma uslub an'analarning ta'siri kuchli.

«Qur'oni karim» eski turkiy tildagi o'girmada Bitig, Kitāb, Oqıyū, Qur'ān deb atalgan. Bulardan Kitāb va Qur'ān so'zlari arabchadan o'zlashgan; Bitig va Oqıyū turkiy so'zlardir.

Bitig so'zi biti- fe'liga ot yasovchi -g qo'shimchasini qo'shib yasalgan. Eski turkiy tilda u bir qancha ma'noni anglatgan (qarang: KBC.72–73). Bu o'rinda u «Kitob», ya'ni «Qur'on»dir. Oqıyū so'zi esa oqı- fe'liga -yu sifatdosh qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. U ham «Qur'on» degani.

Bitig atalishining misoli:

«A'rof» surasida shunday kelgan: Bu bir Bitig indürüldi seňä (Ok.7/2). – «Bu bir Bitig [ya'ni Qur'on] indirildi senga».

«Yusuf» surasida shunday kelgan:

Men turur-men bilgänräk. Bu Bitignıñ belgöläri belgölüg (Ok.12/1). – «Alif. Lom. Ro. Bu (oyatlar) Bitig [ya'ni Qur'on]ning ochiq-ravshan oyatlaridir» (ushbu Yusuf surasi, 1-oyat bo'lib, u shunday: الر تِلْكَ آيَاتُ الْكِتَابِ الْمُبِينِ).

Kitāb atalishining misoli:

«Ol-i Imron» surasida shunday kelgan: İndürdi senıñ üzä Kitābnı haq birlä; rästlayan ol kimersä<ni>-kim, iläyindä turur. Taqı indürdi Tavrıtnı, taqı İnjılñı aşnüdın, köndürügli kişilärni. Taqı indürdi ayrıt kemişgänni (Ok.3/3,4). – «(Ey Muhammad), senga o'zidan avval tushgan kitoblarni tasdiqlovchi bu Kitobni [ya'ni Qur'onni] haq bilan indirdi. Ilgari kishilarni haq yo'lga boshlovchi Tavrotni va Injilni indirgan edi. (Endi esa) haq bilan nohaqni ajratguchi (Qur'on)ni indirdi».

Ushbu oyatlarning arabchasi shunday:

نَزَّلَ عَلَيْكَ الْكِتَابَ بِالْحَقِّ مُصَدِّقًا لِمَا بَيْنَ يَدَيْهِ وَأَنزَلَ التَّوْرَةَ وَالْإِنْجِيلَ 3:3
مِنْ قَبْلُ هُدًى لِّلنَّاسِ وَأَنزَلَ الْفُرْقَانَ 3:4

Oq'iyu atalishining misoli:

«Yusuf» surasida shunday kelgan:

Biz indürdimiz Oq'iyu<nī> tāzīča; bol'ay-kim, silär uqqay-silär (Ok.12/2). – «Biz sizlar (to'g'ri) o'qishlaringiz uchun O'qig'uni [ya'ni Qur'onni] arabchada indirdik» (bu oyat arabchada shunday: إِنَّا أَنْزَلْنَاهُ قُرْآنًا عَرَبِيًّا لَعَلَّكُمْ تَعْقِلُونَ).

«Baqara» surasida shunday bitilgan: Rōza tutmaq ayī-ol-kim, indürüldi anīñ içindä Oq'iyu; köni yol kişilärkä, belgölär köni yoldın, eđgü qilīqdın (Ok.2/185). – «Ro'za tutmoq [ya'ni Ramazon] oyidir-kim, uning ichida O'qig'u [ya'ni Qur'on] indirildi; (u) kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, to'g'ri yo'ldan, ezgu amallardan hidoyat qiluvchi oyatlardir».

«Yunus» surasida shunday kelgan: Qaçan oq'lsa anlar üzä belgölärimiz belgölüglär, aydī anlar-kim, umunč tutmaslar bizkä qawuşmaqnī: «Keltürgil bir Oq'iyu munda ađın azu tegşürgil anī» (Ok.10/15). – «Qachon ularga ochiq-aniq oyatlarimiz o'qib berilsa, biz bilan birga bo'lishni iştamaydiganlar: «Bundan boshqa bir o'qig'u [ya'ni qur'on] keltirgil yoki uni [ya'ni Qur'on oyatlarini] o'zgartirgil», deytilar».

Bu oyatda ishlatilgan tegşürgil fe'li hozirgi o'zbek tilidagi singari «tekshirgil» emas, «o'zgartirgil» anglamidadir (qarang: DTC.549).

«Hijr» surasi (الرَّ تِلْكَ آيَاتُ الْكِتَابِ وَقُرْآنٍ مُبِينٍ) oyati bilan boshlangan.

Oyatning eski turkiy tildagi o'girmasi shunday:

And turur, [bu] bitig belgöläri-ol, Oq'iyu-ol belgölüg (Ok.15/1).

Bu yerda bitig belgöläri-ol – «bitig, ya'ni kitob oyatlaridir» degani; Oq'iyu-ol belgölüg – «aniq-ravshan O'qig'udir» degani. Arabcha oyatning tagma-tag o'girmasi bo'lgani uchun ma'no chiqarishda tartibi biroz o'zgaradi.

Ma'nosi shunday: «Onddir, (bu) Bitig (va) aniq-ravshan O'qig'u [ya'ni Qur'on] oyatlaridir».

Chog'ishtiring: Qur'onning G.S. Sablukov tarafidan bajarilgan ruscha o'girmasida: «Алр. Это – знамения писания и ясного чтения» (K.I.477).

Alouddin Mansur o'girmasida: «Alif. Lom. Ro. Ushbu (oyat)lar Kitobning – ravshan Qur'onning oyatlaridir».

Abdulaziz Mansur o'girmasida: «Alif. Lom. Ro. Ushbu (oyat)lar Kitob (Tavrot, Injil) va aniq Qur'on oyatlaridir».

«Isro» surasida: Ewürdimiz-tewürdimiz-<ök> kişilärkä bu Oq'iyu içindä tegmä menžägdin (Ok.17/89). – «Bu O'qig'u [ya'ni Qur'on] ichida kishilarga turli ibratlardan bayon qildik».

Qur'an atalishining misoli:

«To-ha» surasida:

Ey tolun ay Muḥammad! Quđi iđmadimiz seniñ üzä Qur'anni emgäkiñ üçün; magar pand bermäk turur ol kişikä-kim, qorqar (Ok.20/1–3). – «Ey To'lin oy Muhammad! Senga bu Qur'onni qiynalib jaf o'chekish uchub emas, balki (Allohdan) qo'rqadigan kishilarga pand-nasihat bersin deb uni quyi indirdik». Bu oyatlarning arabcha versiyasi shunday:

طه

20:1

مَا أَنْزَلْنَا عَلَيْكَ الْقُرْآنَ لِتَشْقَى

20:2

إِلَّا تَذِكْرَةً لِّمَن يَخْشَى

20:3

Ushbu oyatlarning birinchisi (Ey tolun ay Muḥammad) arabcha ṭā-hā ning tafsiri bo'lib, tolun ay iborasi – Muhammad alayhi-s-salomning sifatlaridan biridir.

«Zumar» surasida shunday kelgan: Oq'iyu Qur'an tāzīča egriliksiz; bol'ay-kim, anlar saqlanaylar (Ok.39/28). – «(Biz uni) egriliksiz arabcha O'qig'u – Qur'on holidi (indirdik). Shoyad ular saqlansalar».

«Oyat» ma'nosida arabchadan o'zlashgan āyat, turkiy belgü so'zlari ishlatilgan: biziñ belgölärimiz (Ok.2/39) – «bizning oyatlarimiz».

Turkiy o'girmada «oyat» ma'nosida nişān so'zi ham ishlatilgan. Masalan: Taḥrīnīñ nişānlari (Ok.3/70) deydi, bu «Tangrining oyatlari» deganidir.

Qur'oni karimning turkiy o'girmasida arabcha rasūl, nabī so'zlarining o'rnida payyambar (Ok.11/0), yalawač (Ok.5/27) so'zlari ishlatilgan.

Taqī yarlıy iđtimiz Mūsā yalawačqa (Ok.10/87). – «Tag'in Muso payg'ambarga yorliq [ya'ni vahiy] yubordik».

Muḥammad yalawač (Ok.16). – «Muhammad payg'ambar».

Keldi Taḥrī yarlıyī (Ok.16/1). – «Keldi Tangrining yorlig'i [ya'ni qiyomat]».

Endi suralarning atalishi, ya'ni sarlavhalari haqida.

Qur'oni karimning eski turkiy o'girmasida suralarning sarlavhalari quyidagi shakllarda atalgan:

Fātiḥatu-l-Kitāb (Ok.1) – Kitob [ya'ni Qur'oni karim]ning «Fotiha» [ya'ni «Ochuvchi»] surasi.

Sūratu-l-Baqara (Ok.2) – «Baqara» surasi.

Sūratu Āl-i 'Imrān (Ok.3) – «Ol-i Imron» surasi.

Sūratu-n-Nisā' (Ok.4) – «Niso» surasi.

Sūratu-l-Mā'ida (Ok.5) – «Moida» surasi.

Sūratu-l-An'ām (Ok.6) – «An'om» surasi.

Sūratu-l-A'rāf (Ok.7) – «A'rof» surasi.
Sūratu Yūnus (Ok.10) – «Yunus» surasi.
Sūratu Hūd (Ok.11) – «Hud» surasi.
Yūsuf 'alayhis-s-salām (Ok.12) – «Yusuf alayhi-s-salom» (surasi).

Sūratu-l-Qadr (Ok.97) – «Qadr» surasi.
Al-Īxlāṣ (Ok.112) – «Īxlos» (surasi).
Sūratu-l-Falaq (Ok.113) – «Falaq» surasi.
An-Nās (Ok.114) – «An-Nos» (surasi).

Lekin suralarning boshlanishidagi qaydlarda ular turkiy shaklda: Mā'ida sūrasī (Ok.5), Al-An'ām sūrasī (Ok.6), Naḥl sūrasī (Ok.16), Al-Ḥamd sūrasī (Ok.18), Qamar sūrasī (Ok.54) deb yoki arabcha shaklda: Sūratu Muḥammad 'alayhi-s-salām (Ok.47), Sūratu Ṭūr (Ok.52) deb atalavergan.

Eski turkiy tildagi matn Qur'oni karim oyatlarnining so'zma-so'z o'girmasidir. Qo'lyozmada avval arabcha oyat berilib, tagida uning turkiy ma'nosi keltirilgan. Bunday holda, arabcha jumlaning ma'nosini berish uchun tagidagi turkiy jumla ham unga moslashtiriluvchi tabiiy; o'z-o'zidan turkiy jumlaning sintaktik qurumi ham o'zgaradi. Turkiy matnni o'qigan kishi buni tez anlab oladi. Shunday esa-da, tarjimon matnga bilim bilan yondashib, jumlani to'g'ri va tushunarli ifodalashga, bilimli o'quvchi oyat mazmunini anglab yetishiga erishgan.

Turkiy o'girmaning tili boy va uslubi tekis, ravon. Tarjimon turkiy tilning bor uslubiy imkoniyati va boyligidan unumli foydalana olgan.

Suralarning boshlanishida keltirilgan qaydlar

Har bir suraning boshlanishida uning oti, qayerda nozil bo'lgani va necha oyatdan tuzilgani ta'kidlanadi, so'ngra basmala bilan oyatlarga o'tiladi. Masalan, «Moida» surasining boshlanishida uning qayerda nozil bo'lgani, necha oyatdan tuzilgani haqida shunday yozilgan: Mā'ida sūrasī Makkada inmiš turur, yüz taqī yigirmi üç āyat turur (Ok.5). – «Moida» surasi Makkada ingandir, yuz yigirma uch oyatdan iboratdir».

«An'om» surasining boshlanishida shunday qayd etilgan: Al-An'ām sūrasī Makkada inmiš turur, yüz taqī altmış altı āyat turur (Ok.6). – «Al-An'om» surasi Makkada ingandir, yuz oltmish olti oyatdan iboratdir».

«Yunus» surasining boshlanishida shunday yozilgan: Bu Yūnus payg'ambar 'alayhi-s-salām sūrasī Makkada inmiš turur; yüz taqī yeti āyat turur (Ok.10). – «Bu «Yunus payg'ambar alayhi-s-salom» surasi Makkada ingandir; yuz yetti oyatdan iboratdir».

«Hud» surasining boshlanishida shunday: Bu sūra Hūd payg'ambar qışsasiniñ sūrasī turur, Makkada inmiš turur, yüz taqī yigirmi üç āyat turur (Ok.11). – «Bu sūra «Hud payg'ambar» qışsasining surasidir, Makkada ingandir, yuz qigirma uch oyatdan iboratdir».

«Yusuf alayhi-s-salom» surasining boshlanishi shunday: Yūsuf 'alayhis-s-salām sūrasī Makkada inmiš turur; yüz taqī on bir āyat turur (Ok.12). – «Yusuf alayhi-s-salom» surasi Makkada ingandir; yuz on bir oyatdan iboratdir».

«Qadr» surasining boshlanishida shunday: Bu Qadr sūrasī beş āyat turur, Makkada inmiš turur (Ok.97). – Bu «Qadr» surasi besh oyatdan iboratdir, Makkada ingandir».

«Īxlos» surasining boshlanishidagi qayd: Sūratu-l-Īxlāṣ tōrt āyat turur, Makkada inmiš turur (Ok.112). – «Sūratu-l-Īxlos» to'rt oyatdan iboratdir, Makkada ingandir».

«Qur'on» so'nggi «An-Nos» surasining boshlanishi shunday: Sūratu-n-Nās altı āyat turur, <Makkada inmiš turur> (Ok.114). – «Sūratu-n-Nos» olti oyatdan iboratdir, Makkada ingandir».

Basmala va uning turkiy tilda ifodalanishi

Muhammad alayhi-s-salomga Qur'oni karimning ilk bor ko'kdan ingan (nozil bo'lgan) «Alaq» surasi «(Qur'onni) Yaratgan Rabbingning oti bilan (boshlab) o'qi» (أَفْرَأْ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ) oyati bilan boshlanadi (96:1).

Qur'onning bu oyati eski turkiy tilga shunday o'girilgan: Oqīyīl İdiñ atı birlä, ol-kim, yarattı (Ok.96/1). – «O'qig'il (O'qig'uni) yaratgan Egangning oti bilan».

Basmala (بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ) ayni ko'rsatma asosida shakllangan. Bu oyat Qur'oni karim suralarini shu tarzda boshlashga xitob edi.

Yana Naml surasining 30-oyati (27:30) shunday kelgan: (إِنَّهُ مِنْ سُلَيْمَانَ وَإِنَّهُ بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ). Mazmuni: «Albatta, u Sulaymondandir va u (maktubda shunday bitilgan): «Mehribon va rahimli Allohning nomi bilan boshlayman».

Ushbu oyatning eski turkiy matndagi o'girmasi: Ol Sulaymāndin; ol Tanrı atı birlä rōzî berigli, yarlıqaylı (Ok.27/30). – «U (maktub) Sulaymondandir; u rizq berguchi, yorlaqovchi Tangri oti bilan (deb boshlangan)».

Hud surasining 41-oyati (11:41) shunday: (وَقَالَ ارْكَبُوا فِيهَا بِسْمِ اللَّهِ مَجْرَاهَا وَمُرْسَاهَا إِنَّ رَبِّي لَغَفُورٌ رَحِيمٌ). Mazmuni: «(Nuh) aytdi: «Unga [kemaga] mininglar! Uning suzishi ham, to'xtashi ham Allohning ismi bilandir. Albatta, Rabbim kechirimli va rahmlidir».

Ushbu oyatning eski turkiy matndagi o'girmasi shunday: Aydi: Miniñlär anıñ içiñä; Tañrı atı birlä anıñ yürimäki, anıñ langar kemişmäki. Meniñ İdim yazuq örtkän, yarlıqayan (Ok.11/41). – «(Nuh) aytdi: Mininglar unga [kemaga]; uning suzishi, langar tashlashi Tangri oti [ya'ni hukmi] bilandir. Mening Egam gunoh(lar)ni kechirguchi, yorlaqovchidir».

Shulardan kelib chiqib, Qur'oni karimning «Tavba» surasidan boshqa hamma surasi basmala bilan boshlanadi. Islomda barcha ezgu so'z va yaxshi, muhim ishlarni basmala bilan boshlash an'ana bo'lgan.

«Charxiy tafsiri»da basmalaning tafsiri yaxshi berilgan (TTQ.66–69).

Islom davri asarlari ham basmala bilan boshlangan va uni tarjima qilmay, asliday ishlatish rusum bo'lgan. Biroq «Qutadg'u bilig» asarida kelgan basmala turkiy tildadir. Basmalani ilk bor turkiy tilda keltirgan ham Yusuf Xos Hojib bo'ladi (qarang: Sodiqov 2022,255–259).

Chunonchi, asarning uyg'ur yozuvli Hirot nusxasida Allohga bag'ishlangan hamd bo'limi va «Yeti yulduz on iki ökäk buruj ayur» bobi shunday boshlanadi:

Bayat atı birlä sözüg başladım,

Törütäkän / törätäkän, igidgän, keçürgän idim.

«Xudoning oti bilan so'zni boshladim, yaratgan, parvarishlagan, kechirgan egamdır» (QBH.8a,26).

Shuningdek, asar davomida personajlarning bir-biriga yozgan maktublari ham berilgan. Ular shunday boshlanadi:

Bayat atı birlä sözüg / sözün başladı,

Törütäkän, igidgän, keçürgän idi.

«Xudoning oti(ni tilga olish) bilan so'zini boshladi, / Yaratgan, parvarish qilgan, kechirgan ega(m dedi)» (QBH.28a,20; 53b,20; 56a,30).

Endi keltirilgan bayt mazmunini tahlil qilib chiqamiz. Asarning boshida berilgan:

Bayat atı birlä sözüg başladım,

Törütäkän / törätäkän, igidgän, keçürgän idim – baytini mazmunan ikki qismga ajratish mumkin. Bular: matn (so'z) xudo otini zikr etish bilan boshlanayotganining ta'kidı (Bayat atı birlä sözüg başladım) hamda Tangri(idi)ning yaratganligi (törütäkän / törätäkän), parvapişlaganligi (igidgän) va rahmli, kechiruvchi (keçürgän) ekanligining e'tirofi.

Birinchi jumlada kechgan Bayat so'zi islom tushunchasida Haq taolo (Alloh)dir; at so'zi esa Allohning oti (bayat atı)ga ishoradir.

Bayat atı birlä birikmasi «Allohning otini yod etib» ma'nosini beradi. Ayni birikmada arabiy

basmala (Bi-smi-l-lāhi-r-raḥmāni-r-raḥim) ko'zda tutiladi; Bayat atı birlä sözüg başladım, deyilganda «Allohning oti bilan so'zni boshladim» / «Bismilloh bilan so'zni boshladim» degan ma'no bor.

Jumladagi Bayat atı birikmasi alohida olinganda arabiy basmaladagi ismi-l-lāh ga teng keladi. Keyingi satrdagi törütäkän, igidgän, keçürgän idim esa arabiy basmaladagi raḥmāni-r-raḥim sifatlarining sharhi bo'lib kelmoqda.

Tahlil asosida yuqoridagi baytni an'anaviy basmalaning turkiy versiyasi, uning turkchalashgan shakli deyish mumkin. Uning asar boshida berilgani, so'ng hamdu sanoga o'tilgani ham ayni fikrni tasdiqlab turibdi.

Sharhlanayotgan baytda ham Bayat atı birlä hamda törütäkän, igidgän, keçürgän birikmalari arabiy basmalaga aynan muvofiq bo'lib, muayyan qolipli, o'zgarmas komponentlar sanaladi. Qolgan bo'laklar esa nutq vaziyatidan kelib chiqib o'zgaruvi mumkin. Masalan, asar boshida matn Yusuf Xos Hojibning o'z tilidan ifodalangani bois, gap kesimi başladım, maktublarning boshida esa asar qahramonlari haqida so'z borayotgani uchun gap kesimi başladı, tedi shaklida kelgan.

Qur'oni karimning turkiy tildagi eng eski o'girmasida ham basmala turkiy tilda, biroq u «Qutadg'u bilig»dagi basmaladan biroz farq qiladi.

«Qutadg'u bilig»da kechgan basmaladagi Bayat atı birlä birikmasi o'rniga Qur'onning eski turkiy o'girmasida İdi atı birlä / Tañrı atı birlä / Başladım Tañrı atı birlä jumalari ishlatilgan. Ulardagi İdi, Tañrı so'zlari «Alloh»ni anglatadi. İdi atı birlä / Tañrı atı birlä jumalari esa ushbu sura Allohning otini atab, Tangrining otini atab o'qiy boshlanganiga ishoradir.

Jumladan, Qur'oni karim o'girmasida «To-ha» surasidagi basmala shunday shaklda: Ol İdi atı birlä, bayırsaq, yarlıqadaçı (Ok.20). – Ushbu basmala shu turishda arabcha jumlaning so'zma-so'z o'girmasi bo'lib, «Ul mehribon, yorlaqovchi parvardigor oti bilan» deganidir. Bu o'rinda mehribon, yorlaqovchi parvardigorning otini tilga olish bilan sura o'qiy boshlanayotgani ta'kidlanayotir. Shuning uchun bu jumlanı hozirgi o'zbek tilida quyidagicha anglab, talqin qilinmog'i kerak: «(Surani) ul mehribon, yorlaqovchi parvardigor oti(ni tilga olish) bilan (o'qiy boshladim)».

«Anbiyo» surasi shunday basmala bilan boshlanadi: Ol İdi atı birlä, rōzı beriglı, yarlıqaylı (Ok.21). – «(Surani) ul rizq beruvchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim)».

«Mo‘min» surasi shunday basmala bilan boshlangan: Başladim Taḡrī atī birlā, rōzī berigli, yarlıqaylı (Ok.23). – «(Surani) rizq beruvchi, yorlaqovchi Tangri oti bilan (o‘qiy) boshladim».

«Fātiḡatu-l-Kitāb»dagi basmala shunday: Törütkanimiz, bir, uyan İdi atī birlā; bayırsaq, qamuı tınlıyqa rōzī berigli, qamuı mō‘minlarnı yarlıqayan (Ok.1). – «(Surani) yaratgan egamiz, vohid, qodir, mehribon, barcha jonzodlarga rizq berguchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (o‘qiy boshladim)».

«Baqara» surasida: Başlarmız törütkan, ektülāgān uluy İdi atī birlā; rōzī bergān qamuı tebrānigilärkä, aḡar kirtgünmišni yarlıqadači (Ok.2). – «(Surani) barcha tebranuvchilarga rizq bergan, O‘ziga sig‘ing‘uchilarni yorlaqovchi, yaratgan, parvarishlagan ulug‘ Tangri oti bilan (o‘qiy boshlaymiz)».

«Ol-i Imron» surasida: Taḡrīnıḡ atī birlā başlayur-men; öküş raḡmatlig, raḡmati tutuš (Ok.3). – «(Surani) rahmati ko‘p, rahmati uzluksiz Tangrining oti birla (o‘qishni) boshlayman».

«Niso» surasida: İdi atī birlā, rōzī berigli, yarlıqaylı (Ok.4). – «(Surani) rizq beruvchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (o‘qiy bo‘shladim)».

«Moida» surasidagi basmala shunday: Ol İdi atī birlā-kim, rōzī berdāči, yarlıqadači (Ok.5). – «(Surani) rizq berguchi, yorlaqovchi ul parvardigor oti(ni tilga olish) bilan (o‘qiy boshladim)».

«An‘om» surasida: Ol İdim atī birlā-kim, yigidgān, rōzī bergān, suyurqap ‘ayb örtkän (Ok.6). – «(Surani) parvarishlagan, rizq berguchi, ardoqlab, ayblarimizni kechirgan ul parvardigor oti(ni tilga olish) bilan (o‘qiy boshladim)».

«A‘rof» surasida: Ol İdi atī birlā, anda aḡın İdi yoq; mehrbān-kim, ‘āšılarnıḡ yazuqların örtär; yarlıqayan (Ok.7). – «(Surani) mehribon, osiylarning gunohlarini kechirguchi, yorlaqagan ul parvardigor oti bilan (o‘qiy boshladim), undan o‘zga Tangri yoq».

«Hud» surasida: Ol Taḡrī atī birlā-kim, badbaxtliqnı ‘adli birlā qaḡā qıldı; suyurqayan-kim, nekbaxtliqnı öz faḡli birlā ‘aḡā qıldı; dōštlarınıḡ ḡājatın bayışlayan (Ok.11). – «(Surani) badbaxtliqnı adli birla qazo qildi, yorlaqagan, nekbaxtliqnı o‘z fazli birla ato qildi, do‘stlarining hojatini bag‘ishlagan ul Tangri oti birla (o‘qiy boshladim)».

«Qadr» surasidagi basmala: Ol İdi atī birlā bayırsaq, yarlıqaylı (Ok.97). – «(Surani) mehribon, yorlaqagan ul parvardigor oti bilan (o‘qiy boshladim)».

«Ixlos» surasida keltirilgan basmala shunday: Ol İdi atī birlā bayırsaq, yarlıqaylı (Ok.112). – «(Surani)

mehribon, yorlaqagan ul parvardigor oti bilan (o‘qiy boshladim)».

Muhimi shundaki, basmalani turkiyda keltirish keyingi yuzyillarda ham davom etdi. Temuriylar zamonida ushbu an‘anani tutganlardan biri Alisher Navoiy bo‘ldi. Uning «Siroju-l-muslimin» asari shunday bayt bilan boshlangan:

Ču yondum hāma-yi muškīn šamāma,
Qılay ḡaq yādī birlā zebnāma (SM.19b,1).

Ushbu baytdagi ḡaq yādī birlā birikmasi «Qutadg‘u bilig»da kechgan basmaladagi Bayat atī birlā; Qur‘on o‘girmasidagi İdi atī birlā / Taḡrī atī birlā birikmalarining o‘zidir.

Navoiyga ergashgan Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘ldi. Uning «Mubayyan» asari shunday bayt bilan boshlangan:

ḡaqqa ḡamd-u sanā adā qıldım,
ḡaq atī birlā ibtidā qıldım (Müb.1).

«Mubayyan»ning ḡaq atī birlā ibtidā qıldım degan boshlovchi jumlası «Qutadg‘u bilig»dagi Bayat atī birlā sözüḡ başladım yoki Qur‘onning turkiy o‘girmasidagi Başladım Taḡrī atī birlā, rōzī berigli, yarlıqaylı ning o‘zidir.

Basmalarni turkiyda keltirish Yusuf Xos Hojibning kashfiyotidir. Qur‘oni karim o‘girmalarida ham basmala turkiy tilda keltirildi. Qoraxoniylar davrida boshlangan bu an‘ana keyingi davrlarda ham unutilgani yo‘q, xususan, Navoiy va Bobur ham unga ergashib, o‘z asarlarida basmalarni turkiyda keltirdilar. Buni o‘zbek klassik adabiyotida qoraxoniylar davri turkiy adabiyoti va adabiy tili, matn tuzish an‘analarining ta‘siri deb baholamoq kerak.

Allohning go‘zal ismlari

Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» masnaviysida Allohga ḡamd o‘qir ekan, Uning go‘zal ismlarini ham tilga oladi (Содиқов 2020,447–452).

Qur‘oni karim eski turkiy tilidagi o‘girmasida ham Alloh go‘zal ismlarining butun boshli tizimi jamlangan. Yanada muhimi, «Qutadg‘u bilig»da va Qur‘on o‘girmasida keltirilgan go‘zal ismlarning ko‘pi turkiy so‘zlar. Yusuf Xos Hojib ham, Qur‘on tarjimoni ham eski turkiy tilning bor imkoniyati va boyligidan unumli foydalangan.

«Baqara» surasi alif, lām, mīm (الم) harflari bilan boshlangan. Muhimi shundaki, Qur‘onning eski turkiy o‘girmasida bu harflar tafsir qilingan. Ular: Men Taḡrī, bilgānrāk-men (Ok.2/1), ya‘ni «Men Tangri, bilginrakdurmen» deb berilgan.

Qur‘oni karimdagi الله («Alloh») so‘zi eski turkiy o‘girmada Taḡrī (Ok.2/1), İdi (Ok.97) so‘zlari bilan berilgan.

Qadimgi va eski turkiy til, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida qo'llangan Tanrı so'zi ingichka o'zaklidir. Hatto Alisher Navoiy asarlari tilida bu so'z [e] tovushi bilan Tanrı deb talaffuz qilingan, chunki u qo'lyozmada yā harfi bilan ham yoziladi: Tanrı ta'ālā (تینکری تعالی) (Mun.400a,9). Yana chog'ishtiring, Tanrı so'zidagi [e] tovushi harakat bilan ham ifodalanuvi mumkin: Tanrı ta'ālāya (تنکری تعالی غه) (NMb.26a,7).

Muhimi shundaki, Qur'onning eski turkiy tildagi o'girmasida Tanrı so'zi yo'g'on talaffuz qilingan. Jo'nalish kelishigida bu so'zga qo'shimchaning -qa varianti qo'shilgani ham uning yo'g'on talaffuz qilinganiga dalolat qiladi: Tanrıqa (Ok.16/62).

Eski turkiy tilda Allohning go'zal ismlari (sifat ismlari) at deyilgan. Masalan, «Qutadg'u bilig»dan olingan quyidagi baytda Allohning sifatleri ko'zda tutilayotir:

Ey erklig uyan mājū muqsuz bayat,
Yaramas Senin din adınqa bu at.

«Ey erkli, qodir, mangu, mungsiz xudo, Sendan o'zgaga bu ot (ya'ni sifatlar) yarashmaydi» (QBN.7b.6).

Allohning go'zal ismlari (sifat ismlari), ko'pincha, sifat turkumiga tegishli so'zlar bo'lib keladi: uyan (Ok.1) – «qodir»; bay'rsaq (Ok.112) – «mehribon»; mehrbān (Ok.7) – «mehribon» singari.

Allohning go'zal ismlari ko'p o'rinda sifatdosh ham bo'lib keladi. Bular:

-yan, -gän / -qan, -kän affiksli sifatdoshlar: Tanrı bilgän, keçürgän-ol (Ok.4/12). – «Tangri bilguchi va kechirguchidir».

Yoki yana: törüt kän (Ok.2) – «yaratgan»; yigidgän (Ok.6) – «parvarishlagan»; suyrqayan (Ok.8) – «yorlaqagan»

-yli, -gli hamda -dači, -däči affiksli sifatdoshlar: bayışlayli (Ok.14) – «bag'ishlovchi» singari.

-quči, -küči / -yuči, -güči affiksli sifatdoshlar: taplayuči (Ok.17) – «farqlovchi; saylovchi».

Sifatdoshlar turli variantlarda ishlatiluvchi ham mumkin. Masalan: yarliqayan (Ok.7); yarliqayli (Ok.97); yarliqadači (Ok.5) – bularning uchovi «yorlaqagan, yorlaqovchi» degan ma'noni beradi; yoki yana: qamuy mōminlarni yarliqayan (Ok.1) – «barcha mo'minlarni yorlaqagan» singari.

Yoki yana: rōzi bergän (Ok.2); rōzi berigli (Ok.4); rōzi berdäči (Ok.5) – bularning ham uchovi «rizq bergan, rizq beruvchi» degani; yoki yana: qamuy tīnlıyqa rōzi berigli (Ok.1) – «hamma nafas oluvchi jonzotga rizq beruvchi» singari.

Sifat ismlar ba'zan son turkumiga ham tegishli so'z bo'ladi: bir (Ok.1) – «bir, yolg'iz».

Sifat ismlar so'z birikmasi holida ham keladi: öküš rahmatlig (Ok.3) – «ko'p rahmatlar ato etuvchi; rahmati mo'lb».

rahmati tutuš (Ok.3) – «rahmati cheksiz, uzluksiz».

hājati yoq (Ok.112/2) – «hech kimga qaramligi yo'q; mungsiz».

keñrü işlig (Ok.2/115) – «karami keng».

uluğ fazl eyäsi (Ok.3/174) – «ulug' fazilat egasi».

Allohning go'zal ismlariga yana o'rnaklar:

uyan, ya'ni «qodir»: Tanrı tegmä nārsä üzä uyan turur (Ok.3/189). – «Tangri hamma narsaga qodirdir».

keñ, bilgän, ya'ni «fazlu karami keng va bilguchi»: Taqı Tanrı keñ, bilgän (Ok.3/73). – «Yana Tangri fazli keng, bilguchidir».

keñrü işlig, ya'ni «karami keng»: Tanrı keñrü işlig, bilgän-ol (Ok.2/115). – «Tangri karami keng, bilimdondir».

ködäzçi, ya'ni «saqlag'uchi [kuzatuvchi]»: Tanrı erür silär üzä ködäzçi (Ok.4/1). – «Tangri sizlar uza saqlag'uchi[kuzatuvchi]dir» (arabchada shunday: إِنَّ اللَّهَ كَانَ عَلَيْكُمْ رَقِيبًا). Alouddin Mansur o'girmasida: «Albatta Alloh uştingizda kuzatuvchi bo'lgan zotdir».

Arabchada shunday kelgan: وَكَانَ اللَّهُ عَلِيمًا حَكِيمًا (4:17)). Turkiy o'girmada shunday: Erür Tanrı bilgän, bütin işlig (Ok.4/17). Alouddin Mansur o'girmasida: «Alloh bilim va hikmat egasidir».

yazuq örtkän, ya'ni «gunohlarni kechiruvchi»: Tanrı erür yazuq örtkän, yarliqayan-ol (Ok.4/23). – «Tangri mag'firatli va yorlaqagandir».

Tanrı erür tegmä nārsä üzä tanuq (Ok.4/33). – «Tangri hamma narsaga guvohdir».

Tanrı erür yüksäk, uluğ (Ok.4/34). – «Tangri yuksak va ulug'dir».

Tanrı erür bilgän, uqqan (Ok.4/35). – «Tangri bilguchi va uqquchidir».

Tanrı erür keçürgän, yazuq örtkän (Ok.4/43). – «Tangri kechirguchi va mag'firatlidir».

Tanrı erür eşitkän, körgän (Ok.4/58). – «Tangri eshitguchi va ko'rguchidir».

Tap-ol Tanrı, tanuq (Ok.4/79). – «Bunga Tangrining o'zi yetarli guvohdir».

Tap Tanrı ködäzçi (Ok.4/81). – «Tangrining o'zi yetarli saqlag'uchi [vakil]dir» (arabchada shunday: بِاللَّهِ وَكِيْلًا). Alouddin Mansur o'girmasida: «Allohning o'zi yetarli vakildir».

Qadimgi turkiy tilda ködäzçi ~ küdäzçi ~ küdäzçi «soqchi; saqlovchi»dir (qarang: DTC.324).

Ushbu oyatda arabcha vakīl soʻzining oʻrnida ham ishlatilgan. Anglashiladiki, eski turkiy tilda bu soʻzning «kuzatuvchi; vakil» maʼnolari ham bor.

Taḡrī erūr tegmā bir nārsā üzā saqış tutuylī (Ok.4/86). – «Tangri hamma narsani hisobga olgʻuchidir».

Erūr Taḡrī yazuq örtkān, yarlıqāyan (Ok.4/100). – «Tangri magʻfiratli va yorlaqovchidir».

Erūr Taḡrī bilgān, bütün işlig (Ok.4/104). Alouddin Mansurning arabchadan amalga oshirgan oʻgirmasida: «Alloh bilim va hikmat egasidir» deb berilgan.

Erūr Taḡrī tegmā nārsāni qapsayu biligli (Ok.4/126). – «Tangri hamma narsani saqlay bilivchidir».

Erūr Taḡrī keḡrū işlig, bütün işlig (Ok.4/130). – «Tangri fazlu karami keng va hikmat egasidir».

Erūr Taḡrī eşitkān, körgān (Ok.4/134). – «Tangri eshitguchi, koʻrguchidir».

Erūr Taḡrī sipās paḡirlāgli, bilgān (Ok.4/147). – «Tangri shukr qilgʻuchi va bilguchidir».

Taḡrī yarlıqāyan, rahmat qilyān (Ok.3/30). – «Tangri yorlaqovchi, rahmat qilgʻuchidir».

Taḡrī erūr keḡürgān, uyan (Ok.4/149). – «Tangri kechirguchi va qudratlidir».

Tap-ol Taḡrī tanuq (Ok.4/166). – «Tangrining oʻzi yetarli guvohdir».

Taḡrī tegmā nārsāni bilgān-ol (Ok.4/176). – «Tangri hamma narsani bilguchidir».

Taḡrī terk saqışlīy-ol (Ok.2/202). – «Tangri tez hisob-kitob qilgʻuchidir».

Bilgil-kim, Taḡrī köşüş turur, bütün işlig (Ok.2/260). – «Bilgilki, Tangri qudratli va hikmatlidir».

Taqī Taḡrī uluy fazl eyāsi (Ok.3/174). – «Tagʻin Tangri ulugʻ fazilat egasidir».

Taqī Taḡrī qamuḡ nārsā üzā yaraylīy turur (Ok.2/284). – «Tagʻin Tangri hamma narsaga yaroqlidir [yaʼni qodirdir]».

Tarjima masalasi

«Baqara» surasidan olingan bir-ikki oyat va uning eski turkiy tilga oʻgirmasini koʻrib chiqamiz. Oyating arabcha versiyasi shunday:

فِي قُلُوبِهِمْ مَّرَضٌ فَزَادَهُمُ اللَّهُ مَرَضًا وَلَهُمْ عَذَابٌ أَلِيمٌ بِمَا كَانُوا يَكْفُرُونَ 2:10

Oyatning eski turkiy tilga oʻgirmasi quyidagicha:

Anlarniḡ köñüllāri içindā bir ig turur. Arturdi anlarqa Taḡrī igni. Anlarqa qīn turur ayritiylī; anīn yalyān sözlār erdilār (Ok.2/10).

Turkiy oʻgirmadagi anlar – «ular»; ig soʻzi asli «kasal, dard» degani; bu oʻrinda uni «yomon kasallik;

maraz» deb oʻgirsā boʻladi; turur – jumlaning kesimi boʻlib, «bordir, mavjuddir» maʼnosini beradi. Keyingi jumladagi qīn – «qiyin, ogʻir»; ayritiylī esa «ogʻrituvchi, alamli, qiynoqli» degani; anīn – bu oʻrinda «chunki» ergashtiruvchi bogʻlovchisining maʼnosini beradi; anīn yalyān sözlār erdilār ni mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, «ular yolgʻon soʻzlaganlari uchun» deb oʻgiramiz.

Yuqoridagi oyatning mazmuni shunday boʻladi: «Ularning koʻngillarida bir kasallik [yaʼni maraz] bor edi. Tangri ularga kasallikni orttirdi. Ular yolgʻon soʻzlar edilar, shuning uchun ularga alamli azob bordir».

Yoki boshqa bir oyat:

الَّذِينَ كَفَرُوا وَكَذَّبُوا بِآيَاتِنَا أُولَٰئِكَ أَصْحَابُ النَّارِ هُمْ فِيهَا خَالِدُونَ 2:39

Oyatning eski turkiy tildagi oʻgirmasi shunday:

Anlar-kim tandīlar, yalyān ayt[t]īlar biziḡ belgūlārimizni, anlar tururlar ot iḡilāri. Anlar anīḡ içindā māḡgū qalīylīlar (Ok.2/39).

Yuqoridagi oyatning mazmuni shunday boʻladi: «Bizning oyatlarimizni inkor qilib, yolgʻon degan kimsalar esa doʻzax egalari boʻlib, uning ichida mangu qoluvchilardir».

Endi «Ol-i Imron» surasidan olingan quyidagi oyat va uning turkiy oʻgirmasini koʻrib chiqaylik. Ushbu oyatning arabchasi shunday:

تَوَلَّجَ اللَّيْلَ فِي النَّهَارِ وَتَوَلَّجَ النَّهَارَ فِي اللَّيْلِ وَتُخْرِجُ الْحَيَّ مِنَ الْمَمِيتِ وَتُخْرِجُ الْمَمِيتَ مِنَ الْحَيِّ وَتَرْزُقُ مَنْ تَشَاءُ بِغَيْرِ حِسَابٍ 3:27

:Oyatning eski turkiy tilga oʻgirmasi quyidagicha

Kiwrūr-sen tūnni kūdūzkā, taqī kiwrūr-sen kūdūzni tūnkā. Taqī čīqarur-sen tirigni ölūgdin, taqī čīqarūr-sen ölūgni tirigdin. Taqī rōzī berūr-sen kimkā tilāsāḡ, sansīz (Ok.3/27).

Turkiy oʻgirmadagi kiwrūr-sen – «kiritursen» degani (arabcha: تَوَلَّجَ); taqī – «tagʻin, yana» anglamida; bu oʻrinda u arabchadagi وَ bogʻlovchisining vazifasini bajaradi; sansīz – «sonsiz, hisobsiz» degani (بِغَيْرِ حِسَابٍ).

Keltirilgan oyatning maʼnosi quyidagicha boʻladi: «Kiritursen tunni kunduzga, tagʻin kiritursen kunduzni tunga. Tagʻin chiqarursen tirikni oʻlikdan, tagʻin chiqarursen oʻlikni tirikdan. Tagʻin rizq berursen kimga tilasang, sonsiz».

Alouddin Mansurning izohlashicha, «bu oyatda kecha-kunduzning uzayib-qisqarib turishi va oʻlik danak, tuxum, maniy (shahvat suvu) kabi narsalardan daraxt, parranda, inson kabi jonli mavjudotning paydo boʻlishi yoki, aksincha, tirik jonzotdan tuxum, maniy kabi jonsiz narsalar chiqishi – bularning barchasi yolgʻiz Allohning amri bilan boʻlishi

ifodalangan».

Qur'oni karimning qator suralarida Muhammad alayhi-s-salomni Qur'on oyatlarini o'qishga qayta-qayta chaqiriladi. Masalan:

96:3 اقْرَأْ وَرَبُّكَ الْأَكْرَمُ

96:4 الَّذِي عَلَّمَ بِالْقَلَمِ

96:5 عَلَّمَ الْإِنْسَانَ مَا لَمْ يَعْلَمْ

Bu oyatlar eski turkiy tilga shunday o'girilgan:

Oqiy'il; sening Ildi ayirliyraq turur.

Ol-kim ogra[t]i qalam birla.

Ogra[t]i kişikā anī-kim, bilmāz erdi (Ok.96/3–5).

Mazmuni: «(Ey Muhammad), o'qiy'il. Sening Rabbing (kishilarga) qalamni [ya'ni xatni, yozishni] o'rgatgan o'ta karamli zotdir. Ul zot insonga uning bilmagan narsalarini o'rgatdi».

Yoki «Moida» surasida Odam payg'ambarning ikki o'g'li haqidagi butun qissani o'qib berishga chaqiriladi: Oqiy'il anlar üzä Ādam yalawačnıñ iki oylanı sawı<nı>, kirtülük birlä (Ok.5/27). – «(Ey Muhammad) ularga Odam payg'ambarning ikki o'g'loni haqidagi xabarni haqqisirost o'qig'il [o'qib bergil]». Ushbu oyatning arabchasi shunday:

وَاتْلُ عَلَيْهِمْ نَبَأَ ابْنَيْ آدَمَ بِالْحَقِّ إِذْ قَرَّبَا قُرْبَانًا فَتُقْبِلَ مِنْ أَحَدِهِمَا وَلَمْ يُتَقَبَّلْ مِنَ الْآخَرِ قَالَ لَأَقْتُلَنَّكَ قَالَ إِنَّمَا يَتَقَبَّلُ اللَّهُ مِنَ الْمُتَّقِينَ 5:27

Eski turkiy tilda yana bir oqī- fe'li bor; u «chaqir-, chorla-» degan ma'noda keladi. Uni «o'qishga buyruq» anglamidagi oqī- fe'li bilan qorishtirmaslik kerak. «Alaq» surasidan olingan quyidagi oyatlarga e'tibor qiling:

Oqīsun öz bođunıñ (Ok.96/17). – «U o'z jamoasini (yordamga) chaqiraversin»; (arabchada: فَلْيَدْعُ نَادِيَهُ).

Oqıyay-miz tamuy erklıglärini (Ok.96/18). – «Biz esa do'zax farishtalarini chaqirg'aymiz»; (arabchada: سَدَّعُ الرَّبَّانِيَّةَ).

Ayrim suralarning eski turkiy tilga o'girmalari

Eski turkiy tildagi o'girmaning ko'rkini, mazmunini tuyish uchun bir necha oyatni o'sha tilda o'qib ko'rish kerak.

Qur'oni karimning «Fotiha» surasi shunday:

1:1 بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

1:2 الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ

1:3 الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

1:4 مَالِكِ يَوْمِ الدِّينِ

1:5 إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ

1:6 اهْدِنَا الصِّرَاطَ الْمُسْتَقِيمَ

صِرَاطَ الَّذِينَ أَنْعَمْتَ عَلَيْهِمْ غَيْرِ الْمَغْضُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الضَّالِّينَ

1:7

Ushbu sura eski turkiy o'girmada «Fātiḥatu-l-Kitāb» atalgan. Uning to'liq o'girmasi (Ok.1)

quyidagicha:

(0) Törütkānimiz, bir, uyan İdi atı birlä; bayırsaq, qamuı tınlıyqa rōzı berigli, qamuı mō'minlarnı yarlıqayan.

(1) Šukr-u [si]pās ögdi Taḡrıqa, ajunluylarnı ektülägän İdi.

(2) Rōzı berigli, yarlıqaylı,

(3) erklıg<i> saqış yanut küniniñ,

(4) seni birläp seḡa tapnur-miz yana sendin-ök yārı tiläyür-m[iz].

(5) [Yolčılayıl] bizni köni yolqa,

(6) anlarnıñ yolıḡa-kim, minnat qıldıñ anlarnıñ üzä;

(7) ermäs öwkä yanmış anlar üzä, taqı yana yoldın azmış (Ok.1).

Yuqorida keltirilgan eski turkiy matnning mazmuni shunday bo'ladi:

(0) (Surani) yaratgan egamiz, vohid, qodir, mehribon, barcha jonzodlarga rizq berguchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim).

(1) Shukru sipos hamd Tangriga, olamlarni yaratgan Xudo.

(2) Rizq berguchi, yorlaqovchi,

(3) hisob (va) javob kunining egasi,

(4) Seni bir bilib, Sengagina ibodat qilamiz, yana Sendangina yordam so'raymiz.

(5) Bizni shunday to'g'ri yo'lga hidoyat qilg'il,

(6) Shundaylarning yo'ligakim, Sen in'om qilgan zotlarning yo'li (bo'lsin);

(7) ular tufayli g'azabga uchragan, tag'in yana yo'ldan ozganlar(ning emas) (Ok.1).

«Charxiy tafsiri»da Fotiha surasining tafsiri yaxshi berilgan. Kerak degan kishi o'sha kitobdan qarasin (TT4.70–76).

«Qadr» surasining arabcha versiyasi va eski turkiy tildagi o'girmasini (Ok.97) tagma-tag keltirsak, quyidagicha bo'ladi:

Suraning turkiy versiyasida uning necha oyatdan tuzilgani, qayerda ingani qayd etilgan. So'ng turkiy basmala (Ol İdi atı birlä bayırsaq, yarlıqaylı) bilan suraning bayoniga ko'chiladi.

Yuqorida keltirilgan eski turkiy matnning mazmuni shunday bo'ladi:

(0) Bu Qadr surasi besh oyatdan iboratdir, Makkada ingandir.

(Surani) ul mehribon, yorlaqagan [ya'ni rahmli] Allohning oti bilan (o'qiy boshladim).

(1) Biz uni [Qur'onni] Qadr tunida indirdik.

(2) (Ey Muhammad), Qadr tuni nelar yuz berishi haqida neni bilursen?

(3) Qadr tuni ming oydan yaxshiroqdir.

(4) Uning ichida farishtalar, yana Jabroil, Parvardigorlari yorlig'i bilan barcha ishlar (rejasi uchun ko'kdan yerga) inadilar.

(5) U (kecha) tong otgunga qadar barakatu saodat va rahmar, salom bolur (Ok.97).

«Ixlos» surasining arabcha versiyasi va eski turkiy tildagi o'girmasini (Ok.112) tagma-tag keltirsak, quyidagicha bo'ladi:

«Ixlos» surasi eski turkiy o'girmasining mazmuni shunday:

(0) «Ixlos» surasi to'rt oyatdan tuzilgandir, Makkada ingandir.

(Surani) ul mehribon, yorliqagan Allohning oti bilan (o'qiy boshladim).

(1) (Ey Muhammad) aytg'il: «Ul Tangri Birdir [ya'ni yolg'izdir]».

(2) «Tangri hojati yo'qkim [ya'ni u hech kimga muhtoj emasdir];

(3) Undan tug'ilgan yo'q; yana u kimsadan tug'ilmadi [ya'ni uning o'g'il-qizi ham, ota-onasi ham yo'qdir. U azaliy va abadiydir]».

(4) «Hech kimsa unga teng emas; uning teng-tushi yo'qdir».

«Falaq» surasining arabcha versiyasi va eski turkiy o'girmasini (Ok.113) tagma-tag keltirsak, quyidagicha bo'ladi:

Yuqorida keltirilgan eski turkiy tildagi o'girmaning mazmuni quyidagicha:

(0) «Falaq» surasi besh oyatdan iboratdir, Makkada ingandir.

(Surani) ul mehribon va yorliqagan Allohning oti bilan (o'qiy boshladim).

(1) (Ey Muhammad), aytg'il: Men Tong Tangrisi birla senga

(2) (O'zi) yaratgan narsalarning yomonlig'idan,

(3) yana, qachon kirsas, tun qorong'ulig'ining yomonlig'idan,

(4) tugunlarga dam solg'uchi (jodugar)larning yomonlig'idan,

(5) hasad qiluvchi kishilar yomonlig'idan, qachon hasad qilsa, panoh berishini so'rab iltijo qilurmen».

Qur'oni karim so'nggi «An-Nos» surasining eski turkiy tilga o'girmasi (Ok.114) quyidagicha:

(0) Sūratu-n-Nās altı āyat turur, <Makkada inmiş turur>; ol İdi atı birlä bayırsaq, yarlıqayan.

(1) Ayyıl: Sıynur-men yañluqlar İdisiñä,

(2) yañluqlar erkligi,

(3) yañluqlar İdisi;

(4) vasvasa qiliyli şarrindin kezlängän;

(5) ol-kim, vasvasa qilur kişilär köñülläri içindä,

(6) parıldädin, kişilärdin.

Suraning boshlanishida uning necha oyatdan tuzilgani qayd etilgan. Uning qayerda nozil bo'lganini boshqa tafsirlarga tayanib, tiklash mumkin.

Surani ochuvchi basmala (بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ) turkiy tilga: ol İdi atı birlä bayırsaq, yarlıqayan deb o'girilgan. Ushbu basmaladagi ol İdi atı birlä birikmasi «Xudo oti bilan» degan ma'noni anglatadi. Jumla davomidagi bayırsaq, yarlıqayan (الرحمن الرحيم) ning o'girmasi bo'lib, «mehribon, yorliqagan» deganidir.

Birinchi oyat (قُلْ أَغُوذُ بِرَبِّ النَّاسِ) turkiy tilga: Ayyıl: Sıynur-men yañluqlar İdisiñä deb o'girilgan. Undagi ayyıl so'z-gapi Muhammad alayhi-s-salomga buyruq. Sıynur-men – «sig'inurman»; yañluq – «inson», yañluqlar İdisiñä – «insonlar parvardigoriga» degani.

Ikkinchi oyat (مَلِكِ النَّاسِ) turkiy tilga: yañluqlar erkligi deb o'girilgan; bu oyatda Yaratgan ko'zda tutilgan bo'lib, «insonlarning hukmdori, podshohi» degan ma'noni beradi.

Uchinchi oyat (إِلَهِ النَّاسِ) turkiy tilga: yañluqlar İdisi deb ogirilgan; bu «insonlar Ilohi» deganidir.

To'rtinchi oyat (مِنْ شَرِّ الْوَسْوَاسِ الْخَنَّاسِ) turkiy tilga vasvasa qiliyli şarrindin kezlängän deb o'girilgan. Ushbu oyatdagi vasvasa qiliyli – «vasvasa qiluvchi»; kezlängän – «yashiringan» anglamidadir.

Beshinchi oyat (الَّذِي يُوسْوِسُ فِي صُدُورِ النَّاسِ) turkiy tilga ol-kim, vasvasa qilur kişilär köñülläri içindä deb o'girilgan.

Oltinchi oyat (مِنْ الْجَنَّةِ وَ النَّاسِ) turkiy tilga parıldädin, kişilärdin deb o'girilgan.

Yuqorida keltirilgan eski turkiy tildagi matnning mazmuni shunday bo'ladi:

An-Nos surasi olti oyatdan iboratdir, Makkada ingandir;

(Surani) ul mehribon, yorlaqagan [ya'ni rahmli] Allohning oti bilan (o'qiy boshladim).

(1) (Ey Muhammad), aytg'il: «Sig'inurmen insonlar parvardigoriga,

(2) insonlar hukmdori,

(3) insonlar Ilohi(ga);

(4) vasvasa qiluvchi yomonlig'idan yashiringan;

(5) ul-kim, vasvasa qilur kishilar ko'ngillari ichida,

(6) parilardan, kishilardan».

Tuganchi

Qur'oni karimning eski turkiy tilga o'girilishi turk-islom sivilizatsiyasi, ma'rifati va islomshunosligi tarixida ulug' hodisa bo'lgan edi.

Bu davrda eski turkiy yozma adabiy tilida islom diniy-falsafiy atamalar tizimi (terminologiyasi) mukammal darajada ishlab chiqilgan. Muhimi, ushbu atamalarning katta bir qismini turkiy soʻzlar tashkil qiladi. Qurʼonning eski turkiy tilga oʻgirmasida ana shu lugʻat qatlami ishlatilgan. Ular turkiy tilning ichki imkoniyatidan kelib chiqib yasalgan; ixcham, turkiy til qonuniyatlari asosida yasalgan yoki bor soʻzlarga yangi maʼnolar yuklangan; ular islomiy tushunchalarni aniq va ravshan ifodalaydi.

Qurʼonni ona tiliga oʻgirish jarayonida turkiy yozma adabiy til tarixida oʻziga xos yangi bir uslub – islomiy matnlar uslubiga ham asos solindi; uning oʻlchovlari, qoidalari, yoʻl-yoʻriqlari ishlab chiqildi.

Islom davri asarlari ham basmala bilan boshlangan va uni tarjima qilmay, asliday ishlatish rusum boʻlgan. Biroq «Qutadgʻu bilig» asarida kelgan basmala turkiy tilda. Basmalani ilk bor turkiy tilda keltirgan ham Yusuf Xos Hojibdir.

Qurʼoni karimning turkiy tildagi eng eski oʻgirmasida ham basmala turkiy tilda, biroq u «Qutadgʻu bilig»dagi basmaladan biroz farq qiladi. «Qutadgʻu bilig»da kechgan basmaladagi Bayat atʼi birlā birikmasi oʻrniga Qurʼonning eski turkiy oʻgirmasida İdi atʼi birlā / Taḡrī atʼi birlā / Bašladīm Taḡrī atʼi birlā jumalari ishlatilgan.

Yusuf Xos Hojib oʻzining «Qutadgʻu bilig» masnaviysida Allohga hamd oʻqir ekan, Uning goʻzal ismlarini ham tilga oladi. Qurʼoni karim eski turkiy tilidagi oʻgirmasida ham Alloh goʻzal ismlarining butun boshli tizimi jamlangan. Yanada muhimi, «Qutadgʻu bilig»da va Qurʼon oʻgirmasida keltirilgan goʻzal ismlarning koʻpi turkiy soʻzlardir; arabcha sifatlar turkiy tilga oʻgirilgan. Bu narsa Yusuf Xos Hojib ham, Qurʼon tarjimoni ham eski turkiy tilning bor imkoniyati va boyligidan unumli foydalanganini koʻrsatadi.

Eski turkiy tildagi matn Qurʼoni karim oyatlarining soʻzma-soʻz oʻgirmasidir. Qoʻlyozmada avval arabcha oyat berilib, tagida uning turkiy maʼnosi keltirilgan. Bunday holda, arabcha jumlaning maʼnosini berish uchun tagidagi turkiy jumla ham unga moslashtiriluvu tabiiy; oʻz-oʻzidan turkiy jumlaning sintaktik qurumi ham oʻzgaradi. Shunday esa-da, tarjimon matnga bilim bilan yondashib, jumlani toʻgʻri va tushunarli ifodalashga, bilimli oʻquvchi oyat mazmunini anglab yetishiga erishgan. Turkiy oʻgirmaning tili boy va uslubi tekis, ravon.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qurʼoni karim (القران الكريم)dan misol keltirilganda

uning surasi va oyatining raqami koʻrsatib oʻtildi.

2. Okıgu. (2023). En Eski Kurʼan Çevirisi. I. Giriş - Metin - Dizin. Hazırlayan: Ekrem Ural. İstanbul: Kutlu Yayınevi.
3. Коранъ. (1907). Переводъ съ арабскаго языка Г.С. Саблукова (Третье издание). Казань.
4. Қуръони карим. (1992). Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон.
5. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. (2023). Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Tafsisr-books нашриёти.
6. Мовароуннахр туркий тафсирлари тарихидан [Таржима-и Тафсир-и Чархий]. (2012). Сўзбоши, табдил, изоҳ ва мавзу кўрсаткичлари муаллифлари: И. Усмонов, Г. Саидова. Тошкент: Мовароуннахр.
7. Zahirü'd-dîn Muḥammad Bābūr Mīza. (2004). Mübeyyen der Fıkh (Giriş – Metin – Dizin - Tıpkibasım). Hazırlayan: Dr. Tanju Oral Seyhan. İstanbul.
8. Munshaot: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 317 / 1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyotiда (387b–406a).
9. Nasoyimu-l-muhabbat: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 316 / 1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyotiда (22b–154a).
10. Siroju-l-muslimin: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 316 / 1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyotiда (19b–21b).
11. Yusuf Xos Hojibning Qutadgʻu bilig masnaviysi: Н – Vena (Hirot) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: Радлов В.В. (1890). Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. СПб.; Yusuf Has Nacib. (2015).
12. Древнетюркский словарь. (1969). Ленинград: Издательство Наука. Ленинградское отделение.
13. Кутадғу билиг сўзлиги. (2020). Тузувчи: Қ. Содиқов. Тошкент: Akademnashr.
14. Содиқов, Қ. (2020). Эски ўзбек ёзма адабий тили. Тошкент: Akademnashr.
15. Sodiqov, Q. (2022). Oʻzbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). Toshkent: Akademnashr.

REFERENCES

1. Qurʼoni karim (القران الكريم)dan misol keltirilganda uning surasi va oyatining raqami koʻrsatib oʻtiladi
2. Okıgu. (2023). En Eski Kurʼan Çevirisi. I. Giriş - Metin - Dizin. Prepared by: Ekrem Ural. İstanbul: Kutlu Yayınevi.
3. Koran. (1907). Perevod s arabskogo yazyka G.S. Sablukova (Third Edition). Kazan.
4. Qur'oni Karim. (1992). Explanatory translation in Uzbek. Translation and commentary by: Alouddin Mansur. Tashkent: Cholpon.
5. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. (2023). Translation and tafsir by: Shaykh Abdulaziz Mansur.

- Tashkent: Tafsir-books Publishing.
6. Movarounnahr turkiy tafsirlari tarikhidan [Tarjima-i Tafsir-i Charhiy]. (2012). Introduction, adaptation, comments, and topic indexes by: I. Usmonov, G. Saidova. Tashkent: Movarounnahr.
 7. Z̧ahīrū'd-dīn Muḥammad Bābūr Mīza. (2004). Mūbeyyen der Fīḫ (Giriş – Metin – Dizin - Tıpkıbasım). Prepared by: Dr. Tanju Oral Seyhan. İstanbul.
 8. Munshaot: Preserved at the National Library of France, Suppl. Turc. 317 / 1513 in the Navoiy kulliyot (387b–406a).
 9. Nasayimu-l-muhabbat: Preserved at the National Library of France, Suppl. Turc. 316 / 1513 in the Navoiy kulliyot (22b–154a).
 10. Siraju-l-muslimin: Preserved at the National Library of France, Suppl. Turc. 316 / 1513 in the Navoiy kulliyot (19b–21b).
 11. Yusuf Khas Hajib. Qutadghu bilig: H – Vienna (Herat) Manuscript: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13; Radlov, V.V. (1890). Qutadku-Bilik. Facsimile uyghur manuscript. St. Petersburg; Yusuf Has Hacib. (2015).
 12. Drevnetyurkskiy slovar. (1969). Leningrad: Nauka Publishing House. Leningrad Department.
 13. Qutadghu bilig sozligi. (2020). Compiled by: Q. Sodiqov. Tashkent: Akademnashr.
 14. Sodiqov, Q. (2020). Eski ozbek yozma adabiy tili. Tashkent: Akademnashr.
 15. Sodiqov, Q. (2022). O‘zbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). Tashkent: Akademnashr.



ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг
профессор-ўқитувчилари, докторантлари, мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Тахририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyū - الماتريدية - Матүридизм

3/2024

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Нашриётнинг лицензия рақами AI № 0011. 06.05.2019 йил.

Босишга 16.10.2024 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 1/8.

Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.

Нашр табағи 10,4. Буюртма № 23/1.

Баҳоси шартнома асосида.

«Standard Poligraf Service»

МЧЖ қўшма корхонаси босмахонасида чоп этилди.

100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Фозилтепа кўчаси, 12Б.